

**TA'LIM JARAYONIDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKTDAN
FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VA
KAMCHILIKLARI: CHATGPT MISOLIDA**

To'raboyeva Mahliyo Kozimbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Alimova Jamilaxon Rozijonovna
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida generativ sun'iy intellektdan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini ChatGPT misolida o'rganishga oid fikr-mulohazalar yuritilgan. Generativ sun'iy intellekt yordamida tashkil etilgan o'quv jarayonining tanqidiy fikrlash, mustaqil yozma nutq va fan mazmunini o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'siri haqida batafsil bayon etildi. Shuningdek, generativ sun'iy intellektni ta'limga integratsiya qilish bilan bog'liq pedagogik imkoniyatlar, kamchililar hamda axloqiy muammolar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: generativ sun'iy intellekt, oliy ta'lim, didaktika, ChatGPT, tanqidiy fikrlash, raqamli pedagogika.

Abstract

This article discusses the didactic possibilities of using generative artificial intelligence in education using the example of ChatGPT. The impact of the educational process organized using generative artificial intelligence on the indicators of critical thinking, independent written speech, and mastery of subject content was described in detail. The pedagogical opportunities, observed shortcomings, and ethical problems associated with the integration of generative artificial intelligence into education were also analyzed.

Keywords: generative artificial intelligence, higher education, didactics, ChatGPT, critical thinking, digital pedagogy.

Аннотация

В данной статье на примере ChatGPT рассматриваются дидактические возможности использования генеративного искусственного интеллекта в образовании. Подробно описано влияние образовательного процесса, организованного с использованием генеративного искусственного интеллекта, на критическое мышление, самостоятельную письменную речь и освоение предметного содержания. Также проанализированы педагогические возможности, недостатки и этические вопросы, связанные с интеграцией генеративного искусственного интеллекта в образование.

Ключевые слова: генеративный искусственный интеллект, высшее образование, дидактика, ChatGPT, критическое мышление, цифровая педагогика.

Kirish

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Matn yaratish, savollarga javob berish va murakkab tushunchalarni izohlash imkoniyatiga ega bo'lgan generativ sun'iy intellekt vositalari oliy ta'limda yangi pedagogik yondashuvlarni shakllantirmoqda [1](Holmes va boshq., 2019).

2022-yilda OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan ChatGPT global miqyosda ta'lim muhitiga tez sur'atlarda kirib keldi (OpenAI, 2023). Mazkur texnologiya tabiiy tilni qayta ishlash algoritmlariga asoslangan bo'lib, foydalanuvchi bilan muloqot tarzida ishlaydi. UNESCO (2023) hisobotida generativ sun'iy intellekt ta'lim sifatini oshirish imkonini berishi, biroq akademik halollik va mas'uliyatli foydalanish masalalarini dolzarb qilib qo'yishi ta'kidlangan.

Generativ sun'iy intellektdan foydalanishning didaktik mexanizmlari va uning o'quv natijalariga real ta'siri yetarli darajada empirik asoslanmagan. Generativ sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlarini aniqlash va tajriba asosida baholash. Generativ sun'iy intellektni metodik jihatdan tizimli qo'llash talabalarning tanqidiy fikrlash va mustaqil yozma nutq ko'nikmalarini an'anaviy o'qitishga nisbatan sezilarli darajada oshiradi.

Jumladan, professor-o'qituvchilar ChatGPTni o'z faoliyatining yordamchi vositasi sifatida quyidagi ko'rinishlarda qo'llashlari mumkin:

- ChatGPT yordamida dars mashg'uloti senariysini ishlab chiqish, ma'ruza va mavzu bo'yicha taqdimot matnini tayyorlash;
- ChatGPT vositasida tegishli mavzuga oid savollar tuzish; ChatGPT yordamida jumboqli keyslar simulatsion o'yinlar va talabalarda qiziqish uyg'otadigan ilg'or o'qitish usullarini yaratish;
- ChatGPT vositasida mustaqil ish mavzulari, oraliq va yakuniy nazorat savollarini tuzish;
- Xorijiy til o'qituvchilari ChatGPT yordamida tegishli mavzuga oid lug'at tuzishi, grammatik mashqlar hamda talabalarda talaffuz ko'nikmalarini shakllantiradigan topshiriqlar yaratish;
- ChatGPT vositasida tegishli mavzuga oid loyiha yaratish, maqola va tezis mavzularini shakllantirish [2].

Xulosa Generativ sun'iy intellekt, xususan ChatGPT, oliy ta'lim jarayonida samarali didaktik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Kelgusida:

- Uzoq muddatli ta'sirni o'rganish

- AI asosidagi baholash tizimlarini ishlab chiqish
- Akademik halollik mexanizmlarini takomillashtirish

dolzarb ilmiy yo'nalishlar bo'lib qoladi.

ChatGPTdan foydalanishning foydali jihatlari bilan bir qatorda muayyan kamchiliklarni ham e'tirof etish joizdir. Mazkur sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida ayrim xatoliklar kuzatildi.

2022-yil dekabr oyida Stack Overflow savol-javob veb-sayti ChatGPT javoblarining haqiqatda noaniqligini ta'kidlab, savollarga javoblar yaratish uchun ChatGPTdan foydalanishni taqiqladi. 2023-yil yanvar oyida Mashinalarni o'rganish bo'yicha xalqaro konferensiya taqdim etilgan maqolalarda har qanday matn yaratish uchun ChatGPT yoki boshqa yirik til modellaridan hujjatsiz foydalanishni taqiqlagan. [3]

ChatGPT butun internetga to'g'ridan-to'g'ri kirishga ega emas. Model oldindan tayyorlangan ma'lumotlar asosida o'rganadi, ularda turli manbalar mavjud. U real vaqtda internetdan ma'lumot izlash yoki yangi ma'lumotlarni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli, ba'zan u «gallyutsinatsiya» qilishi va noto'g'ri narsalarni aytishi mumkin.

ChatGPT'dan foydalanish juda qulay bo'lsa ham, quyida uning ayrim muhim kamchiliklari bor:

- 1) **Har doim ham to'g'ri javob bermaydi;**
- 2)Ma'lumotlar berilishida cheklovlar kuzatiladi;
- 3) **Manbalarni aniq ko'rsatmaydi;**
- 4) Kontekstni noto'g'ri tushunishi mumkin;
- 5) Maxfiylik bilan bog'liq xavotirlar;
- 6) Haddan tashqari bog'lanib qolish xavfi ;
- 7) **Ijodiylikni cheklashi mumkin;**
- 8) Murakkab qarorlar uchun to'liq mos emas;
- 9) Til va madaniyat kontekstida xatolar;

ChatGPT va boshqa generativ sun'iy intellekt modellarini kuchli vositalar sifatida ishlatish muhim, ammo ular inson o'qituvchilari va repetitorlarining o'rnini bosmaydi. Ushbu vositalardan mas'uliyat bilan foydalanish va ularni insoniy ta'lim va qo'llab-quvvatlash bilan birgalikda qo'llash zarur (Ribeiro & Vala, 2020) [4]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education*.
2. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish: metodik qo'llanma/ M.Xurramov, K.Xalmuratova. - T.: "Yetakchi nashriyoti", 2024.- 28 b
3. Vincent, James. „Top AI conference bans use of ChatGPT and AI language tools to write academic papers“. *The Verge* (2023-yil 5-yanvar).

4. Ribeiro & Vala, 2020. Education in the Era of Generative Artificial Intelligence (AI): Understanding the Potential Benefits of ChatGPT in Promoting Teaching and Learning.